

**ELEKTRON TIJORAT TIZIMLARI****Qodirov Farrux Ergash o'g'li****Shahrisabz davlat pedagogika instituti****"Informatika va uni o'qitish metodikasi" kafedrası mudiri, ilmiy raxbar****Nematova Sevinch Azamatovna****Shahrisabz davlat pedagogika instituti****"Matematika va informatika" yo'nalishi 2-bosqich talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.14500621>**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada elektron tijorat, uning turlari, afzalliklari va kamchiliklari haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, O'zbekistonda elektron tijorat qanday rivojlanayotgani, raqamlashtirish sharoitida elektron tijoratni soliqqa tortishni huquqiy tartibga solish va internet orqali amalga oshirilayotgan tranzaksiyalar sonining o'sishiga oid masalalar ko'rsatilgan. Bundan tashqari, elektron tijorat sohasida tadbirkorlik subyektlari tomonidan sodir etilgan raqobatga qarshi harakatlarni o'rganish masalalari ko'rib chiqildi.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация об электронной коммерции, ее видах, преимуществах и недостатках. Также о том, как развивается электронная коммерция в Узбекистане, представлены вопросы правового регулирования налогообложения электронной коммерции в условиях цифровизации и роста количества транзакций, осуществляемых через Интернет. Кроме того, были рассмотрены вопросы изучения антиконкурентных действий, совершаемых субъектами предпринимательства в сфере электронной коммерции.

**Abstract:** This article provides information about e-commerce, its types, advantages and disadvantages. Also, issues related to how e-commerce is developing in Uzbekistan, legal regulation of e-commerce taxation in the context of digitization, and the increase in the number of transactions carried out via the Internet are shown. In addition, issues of studying anti-competitive actions committed by business entities in the field of electronic commerce were considered.

**Kalit so'zlar:** Elektron tijorat, mahsulot va xizmatlar, platforma, mahalliy tadbirkorlar, internet, to'lov tizimlari.

**Ключевые слова:** Электронная коммерция, продукты и услуги, платформа, местные предприниматели, Интернет, платежные системы.

**Keywords:** E-commerce, products and services, platform, local entrepreneurs, internet, payment systems.

**Elektron tijorat** - bu tovar va xizmatlarni internet orqali sotib olish va sotish jarayoni hisoblanadi. U hozirgi kunda zamonaviy biznesning asosiy qismlaridan biriga aylandi. Kompaniyalarga o'z mahsulotlarini global miqyosda sotish va xaridorlarga qulay xarid qilish imkoniyati bermoqda. Elektron tijoratdagi elektron hujjatlar yuboruvchisini identifikatsiya qilish imkoniyatini beruvchi axborotni o'z qo'li bilan imzolangan qog'ozdagi hujjatlar bilan teng o'ringa qo'yiladi. Shu bilan bir qatorda ulardan bitim va kelishuvlar tuzilganliginig dalili sifatida foydalanish mumkin. Elektron tijoratning quyidagi turlari mavjud:

Birinchichisi, B2C Ya'ni bunda kompaniyalar o'zlarining mahsulotlarini iste'molchilarga to'g'ridan-to'g'ri sotadilar. Masalan, Amazon, Ozon, yoki Aliexpress kabi platformalar.

Ikkinchisi, B2B Bunda kompaniyalar boshqa kompaniyalarga mahsulot yoki xizmatlar taklif etadi. Masalan, Alibaba yoki Global Sources.

Uchinchisi, C2C Foydalanuvchilar bir-biriga mahsulotlarni sotishadi. Masalan, eBay yoki OLX.

To'rtinchisi, C2B Foydalanuvchilar o'z xizmatlari yoki mahsulotlarini kompaniyalarga taklif qiladi. Masalan, freelancing platformalari.

Endi elektron tijoratning afzallik va kamchiliklarini ko'rib chiqamiz. Afzalliklari quyidagilardan iborat: xaridorlar istalgan vaqtda va joyda xarid qilish imkoniyatiga ega, mahsulot va xizmatlarni xalqaro bozorlarga chiqarish va global yetkazib berish, kam xarajatlar, ma'lumotlarni tahlil qilish, ya'ni mijozlar xatti-harakatlarini tahlil qilib, shaxsiylashtirilgan takliflar yaratish imkoniyati.

Elektron tijoratning kamchiliklari: texnologik muammolar, ya'ni internetga bog'liq bo'lish va texnik xatoliklar, foydalanuvchi ma'lumotlarini himoya qilish masalasi, xaridorlar mahsulotlarni ko'rib, sifatini tekshirib, ushlab ko'ra olmaydilar. Faqatgina mahsulot kelganda uni ko'rishlari mumkin.

COVID-19 global pandemiyasi tufayli elektron tijorat butun dunyo bo'ylab yuqori darajada o'sib borganini quyidagi ma'lumotlar tasdiqlaydi: "Jahonning yetakchi mamlakatlarida raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotning 4-5 foizini ta'minlamoqda, jahondagi savdo aloqalarining 15 foizdan ko'prog'i uning hissasiga to'g'ri kelmoqda."

Hozirgi vaqtda dunyoda rivojlanib borayotgani kabi O'zbekistonda ham elektron tijorat rivojlanib bormoqda. To'lov tizimlari (Payme, Click) orqali qulay to'lov imkoniyatlari kengaymoqda, mahalliy platformalar, masalan, OLX.uz, ZoodMall va Express24 mijozlarga xizmat ko'rsatmoqda. Bu aholiga bir qancha qulayliklar keltirmoqda.

Sababi endi ko'chaga chiqmasdan, uyda o'tirgan holda telefon orqali istalgan xizmat yoki mahsulotlardan foydalanish, sotib olish imkoniyati mavjud. Masalan, OLX.uz platformasiga nazar salsak. Bu platforma O'zbekiston hududida mashhur bo'lgan onlayn e'lonlar platformasi bo'lib, foydalanuvchilarga mahsulotlar, xizmatlar yoki ish e'lonlarini joylashtirish va izlash imkonini beradi. OLX (Old Line Exchange) butun dunyo bo'ylab faoliyat yuritadigan global platforma bo'lib, O'zbekistondagi faoliyati uchun OLX.uz domeni ostida ishlaydi. Bunda siz elektronika, kiyim-kechak, transport, ko'chmas mulklarni sotish va sotib olish, ish qidirish va shu kabi masalalarda foydalanishingiz mumkin. Bu, albatta, har birimiz uchun qulay.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilda elektron tijorat savdolari hajmi 2021-yilga nisbatan 1,8 barobar oshib, 10 886,8 milliard so'mdan ortiqni tashkil etdi. Bu esa umumiy chakana savdo hajmining 4 foizdan ortig'iga teng.

O'zbekistonda elektron tijoratning kelajagini belgilovchi muhim omillardan biri—sohani qonunchilik orqali tartibga solishdir. 2022-yilda yangilangan "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Qonun iste'molchilarni ham, tadbirkorlarni ham huquqiy himoya qiladi. Elektron operatsiyalarni amalga oshirish va huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni belgilash tartibini belgilab beradi. Ishonchli elektron tijorat ekotizimini yaratishda qonunchilik va to'lov tizimlari hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ular jarayonning barcha ishtirokchilari va xaridorlari, shu bilan birga sotuvchilarning huquq va manfaatlarini himoya qiladi.

2019-yilda "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Bu fintech sektorining rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Elektron to'lovlar iste'molchilar va biznes uchun qulaylik va xavfsizlikni ta'minlovchi onlayn tijoratning ajralmas qismiga aylandi. Ular aholi

uchun juda foydali bo'lib, ishlarini yengil va oson bo'lishini ta'minladi. O'zbekistonda onlayn savdo va tranzaksiyalarni osonlashtiradigan bir qancha to'lov tizimlari joriy qilindi.

Iqtisodiy rivojlanish oqibatida O'zbekiston xalqaro iqtisodiyot tizimida o'z o'rniga ega bo'lib bormoqda. Bu esa o'z navbatida elektron tijoratni takomillashtirish, uni jahon miqyosidagi mavqeyini oshirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. 2004-yil 29-aprelda N613-II - Elektron tijorat|| to'g'risida O'zbekiston Respublikasi qonuni, 2007-yil 30-noyabrda Vazirlar Mahkamasining No21 –Elektron tijoratni rivojlantirish|| tog'risidagi va 2007-yil 12-iyunda –Elektron tijorat tizimini amalda qo'llashda to'lov tizimini takomillashtirish|| tog'risidagi qarorlar qabul qilindi. Bundan tashqari Respublikada elektron tijoratni rivojlantirish maqsadida “E-karmon” loyihasi ishlab chiqildi. Bu esa o'z navbatida amaliyotda qo'llanilmoqda. Olib borilgan va bajarilgan ishlar asosida bir qancha ijobiy natijalarga erishildi. Masalan, axborot almashinuvi tezligini oshirish va unga sarflanadigan vaqtni kamaytirish maqsadida olib borilgan ishlarining natijasi Respublikada xalqaro axborot tarmoqlari tezligini oshishida yaqqol o'z aksini topadi. Axborot tarmoqlari tezligi oshishi, albatta, biz uchun quvonarli holat. Masalan, onlayn dars qilmoqchi bo'lganimizda, internet orqali biror bir axborot ko'rmoqchi bo'lganimizda va shu kabi masalalarda bizga internet tezligi yuqori bo'lishi muhim rol o'ynaydi.

Elektron tijorat rivojlanib borgan sari undagi raqobat muhitini yaxshilash muammolari ham yuzaga kelmoqda. Prezidentning 06.07.2020 yilda «Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-6019-son farmoni qabul qilindi. Bu mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish, bozorlarda raqobat muhitini yaxshilash va iste'molchilar huquqlarini ta'minlash qonunlariga rioya etilishini nazorat qilishning samarali tizimini yaratishni o'z ichiga oladi. Elektron tijorat rivojlana boshlagan sari undagi muammolar, tartibga solish masalalari bilan bir qatorda an'anaviy savdoda bo'lganidek, raqobatga zid holatlar ham uchraydi.

Raqobatga qarshi harakatlar — raqobat to'g'risidagi qonunchilikda xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun man etilgan harakatlar, shuningdek davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda ular mansabdor shaxslarining raqobatni cheklashga qaratilgan harakatlari (harakatsizligi) hisoblanadi.

Electron tijoratda raqobatga qarshi harakatlarni ham sodir etuvchi shaxslarga ko'ra quyidagi ikki turga bo'lishimiz mumkin:

1. Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan sodir etilgan raqobatga qarshi harakatlar.
2. Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda ular mansabdor shaxslarining raqobatga qarshi harakatlari.

Bundan tashqari elektron tijorat haqida qonun va qoidalar ham keltirib o'tilgan. 1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi va qo'llanilish sohasi

Ushbu Qonunning maqsadi elektron tijorat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ushbu Qonunning amal qilishi tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladigan davlat xaridlariga;

birja faoliyati uchun litsenziyalarga ega bo'lgan birjalarda tuziladigan kelishuvlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

2-modda. Elektron tijorat to'g'risidagi qonunchilik. Elektron tijorat to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining elektron tijorat to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar. Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi. raqamli mahsulotlar — intellektual mulk obyektlarining elektron ko'chirma nusxalari (raqamli tovarlar), shuningdek elektron axborot muhitida moddiy natijaga ega bo'lmagan muayyan harakatlarni bajarish yoki muayyan faoliyatni amalga oshirish, shu jumladan "bulutli texnologiyalar"ni (raqamli xizmatlarni) olishga hamda ularga obuna bo'lishga doir xizmatlar; elektron savdo maydonchasi — tovarlar (ishlar, xizmatlar) oldi-sotdisini masofadan turib amalga oshirish imkonini beruvchi axborot tizimi; elektron savdo maydonchasining operatori — elektron tijorat ishtirokchilariga elektron savdo maydonchasi xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxs;

elektron tijorat — tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tadbirkorlik faoliyati doirasida axborot tizimlaridan foydalangan holda elektron savdo maydonchasi orqali tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiriladigan oldi-sotdisi; elektron tijorat operatori — elektron tijoratda elektron hujjatlar va elektron xabarlar aylanishi bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxs;

elektron tijorat subyektlari — elektron tijorat ishtirokchilari va (yoki) elektron tijorat operatorlari.

O'zbekiston bozoriga xorijiy bozorlarning kirib kelishi mahalliy tadbirkorlarga katta imkoniyat yaratib, jahon darajasiga chiqish va ular bilan raqobatlashishga zamin yaratmoqda. Bundan tashqari, O'zbekistonda elektron tijoratga Visa va Mastercard to'lov tizimlari ham faol joriy etilmoqda. Bu mahalliy tadbirkorlarga xalqaro mijozlardan to'lovlarni qabul qilish va o'z biznesi chegaralarini kengaytirish imkonini beradi. Ya'ni boshqa davlatlardan kelgan mijozlar ham bundan bemaolol foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

**Xulosa:** Bugungi kunda axborot texnologiyalarining o'rni juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, hozirgi vaqtda onlayn tijorat qilish, savdo qilish ommalashib bormoqda. Bu, albatta, hozirgi davr talabi. Shu sababli har bir inson bunday tijorat ishlari haqida biroz bo'lsa ham ma'lumotga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki oddiy bir onlayn do'konlar orqali xarid qilmoqchi bo'lsak ham u haqida ma'lumotga ega bo'lish, xizmat va mahsulotlarini tekshirish muhimdir. Sababi bu mahsulot rasmda ko'rsatilgandek kelishi, sifatining aytilgan kabi yaxshi bo'lishi mahsulot kelgandan so'nggina namoyon bo'ladi. Shuning uchun bu onlayn do'konlar haqida ma'lumotga ega bo'lib, sinovdan o'tkazib keyin undan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

### References:

1. Sh, Mavlonov Sh, and F. B. Jurayeva. "ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA MINTAQALAR IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH." Экономика и социум 10 (125) (2024): 234-238.
2. Aliqulov, Sh. "M. Yaxiyaxonova. Ta'lim samaradorligini oshirishda kreativ va zamonaviy metodlarning ahamiyati. Raqamli ta'lim muhitida fanlararo integratsiyani Qo'llashning ta'lim samaradorligiga ta'siri: xalqaro Tajribalar va rivojlanish istiqbollari." (2024).

3. Shukurullo Fayzullo o'g'li, Aliqulov. "TA 'LIMDA MULTIMEDIYA TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH." *PEDAGOGS* 50.2 (2024): 51-55.
4. Shamsiddinov, G'iyosjon, Barchin Ro'ziqulova, and Laziza Inatillayeva. "BOSHLANG 'ICH TA'LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI VA AFZALLIKLARI." *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* 3.10 (2024): 39-41.
5. Shamsiddinov, G'iyosjon, Jasmina Murodulloyeva, and Umida Nurmaxmatova. "YASHIL IQTISODIYOT VA YO 'NALISHLARI BO 'YICHA TA'LIM DASTURLARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI." *Models and methods in modern science* 3.5 (2024): 44-49.
6. Shamsiddinov, G'iyosjon, and Temurbek Zarifov. "GLOBAL TARMOQ QURISHDA TARMOQ QURILMALARIDAN FOYDALANISH VA TARMOQ TOPOLOGIYALARINING O'RNI." *Science and innovation in the education system* 3.5 (2024): 50-60.
7. Raxmatov Sherqo'zi Akbar Kodirov. "Ta'lim jarayonida bulutli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi" *Pedagogis Internatsional research* ISSN:281-4027\_SJIF:4.995. 2023/5/15
8. F Qodirov. Aholiga tibbiy xizmatlar ko'rsatishning rivojlanishini iqtisodiy-matematik modellashtirish. *Scienceweb academic papers collection* . 2023/1/1.
9. F Qodirov. Zamonaviy to'lov tizimlari tahlili va elektron pul birliklari. *Scienceweb academic papers collection*. 2023/1/1.
10. Ergash o'g'li, Qodirov Farrux. "Аҳолига тиббий хизмат кўрсатиш соҳасининг келгуси ҳолатини башоратлаш." *Сервис" илмий-амалий журнал* (2022): 56-59.
11. Ergash o'g'li, Qodirov Farrux. "ECONOMETRIC MODELING OF THE DEVELOPMENT OF MEDICAL SERVICES TO THE POPULATION OF THE REGION." *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities* 2.1.1 Economical sciences (2022).
12. Ergash o'g'li, Qodirov Farrux. "CREATION OF ELECTRONIC MEDICAL BASE WITH THE HELP OF SOFTWARE PACKAGES FOR MEDICAL SERVICES IN THE REGIONS." *Conferencea* (2022): 128-130.
13. Қодиров, Фаррух. "ПРОЦЕСС РАЗРАБОТКИ ИГРОВОГО ДВИЖКА UNITY." АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ШАРОИТИДА ИННОВАЦИЯЛАР мавзусидаги Республика илмий-амалий анжуман МАЪРУЗАЛАР ТУПЛАМИ (2019).
14. Qodirov, Farrux. "" AQLLI UY" TIZIMINING IMKONIYATLARI." *Scienceweb academic papers collection* (2019).
15. Qodirov, Farrux. "DESCRIPTION AND PERFORMANCE OF THE PROGRAM 3D MAX STUDIO." АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ШАРОИТИДА ИННОВАЦИЯЛАР мавзусидаги Республика илмий-амалий анжуман МАЪРУЗАЛАР ТУПЛАМИ (2019).
16. Qodirov, Farrux. "GPON TEXNOLOGIYASI-OPTIK KIRISH TARMOG'I." АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ мавзусидаги Республика илмий-амалий анжуман МАЪРУЗАЛАР ТҶПЛАМИ (2018).